

**UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTAB ONA TILI DARSLIKLARIDA  
“FE`L” SO`Z TURKUMINING BERILISHI**

*Niyozmatov Abdullajon Anvarjon o'g'li*

*Farg'ona viloyati Furqat tumani Furqat IM ona tili va adabiyot fani  
o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili darsliklarida fe'l so'z turkumining berilishi va maktab darsliklarida uchraydigan ayrim kamchiliklar hamda ularning yechimlari xususida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:** fe'l, og'zaki va yozma nutq, zamonaviy ta'lim, metod, munosabat shakllari, atama, sintaksis, leksikologiya.*

Ma'lumki, umum o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limiga qo'yiladigan asosiy ta'limlardan biri o'quvchilarni o'z fikrini mustaqil va erkin bayon qilishga o'rgatishdir. Fikr esa faqat til orqali ro'yobga chiqadi. Ona tili ta'limi mazmunini yangilash borasida qilinayotgan ishlarda ham asosiy e'tibor o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, jumladan, ularning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalalariga qaratilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishdan maqsad o'quvchilarni keng ijodiy fikrlaydigan, mustaqil mushohada qila oladigan hamda fikrini to'g'ri va ravon og'zaki va yozma bayon qilish ko'nikmalarining shakllanishiga yo'naltirishdan iborat. Chunki og'zaki nutq asosi bo'lgan nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Ona tili o'qitishdan asosiy maqsad – o'quvchilarnig nutq madaniyatini shakllantirish. Shuning uchun ona tili darslarida ko'proq o'quvchilarnig og'zaki nutqini rivojlantirishga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir.

Biz ushbu maqolamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinflari uchun tuzilgan « Ona tili» darsligida «Fe'l» so'z turkumiga oid materiallarning berilishi

haqida mulohaza yuritishga harakat qilamiz. Darslik zamonaviy ta'lim usul va metodlari asosida tuzilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday bo'lsa-da, darslikni yanada mukammallashtirish borasida o'z fikrimizni fe'l so'z turkumi misolida bildirishga harakat qilamiz. Darslikning fe'llarning munosabat shakllari» mavzusida «Fe'llarni kesim sifatida qo'llanilishiga xoslovchi shakllarga fe'lning munosabat shakllari deyiladi. Munosabat shakllariga zamon, mayl, shaxs-son shakllari kiradi», degan qoida bor. Demak, munosabat shakllari fe'lni kesim sifatida shakllantirib, uni ega bilan bog'laydi. Masalan, "Yurtimiz dovrug'ini dunyoga tanitaylik" gapida -aylik I shaxs ko'plikdagi mayl qo'shimchasi kesimni shakllantiryapti. Yoki "Shahrimizda katta o'zgarishlar bo'lmoqda" gapida -moqda hozirgi zamon qo'shimchasi III shaxs ma'nosini ham bildirmoqda. Biz sal oldinroq, ya'ni "Qo'shimchalar tasnifi" mavzusida, "So'zlarni bir-biri bilan munosabatga kirishtiradigan, bir-biri bilan bog'laydigan qo'shimchalarga sintaktik shakl yasovchilar deyiladi va ularga otlardagi egalik, kelishik; fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalari kiradi", degan nazariyani tushuntirganmiz. Endi "Fe'llarning munosabat shakllari" mavzusida "Kecha, bugun, ertaga" usulini qo'llasak, o'quvchida "Sintaktik shakl yasovchi bilan fe'l munosabat shakllarining qoidasi o'xshash ekan, nega unda zamon va mayl qo'shimchalari sintaktik shakl yasovchiga kirmaydi?" degan haqli savol tug'iladi. Tabiiyki, bu savolga darslik mualliflari ham "sintaktik shakl yasovchilarga egalik, kelishik, shaxs-son va boshqalar kiradi", deyishgan. Men ana o'sha "boshqalar"ni zamon, mayl va ismlardagi bog'lamalardir, deb tushuntiraman. Ammo "Bilimlar bellashuvi", fan olimpiadalari va hatto oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlarida ham zamon va mayl shakllari goh lug'aviy shakl yasovchilarga, goh sintaktik shakl yasovchilarga taalluqliligi belgilangan holat mavjud. 6-sinf ona tili darsligidagi qo'shimchalar tasnifiga, ayniqsa, sintaktik shakl yasovchilarga aniq ilmiy xulosa chiqarilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Darslikdagi ayrim mavzularni o'zlashtirishda ta'riflardagi ba'zi nomutanosibliklar o'quvchilarga biroz qiyinchiliklar tug'dirmoqda. 26-dars. "Harakat va holat fe'llari" mavzusida fe'llar nimani atab kelishiga ko'ra harakat fe'llari va holat fe'llariga ajratilishi ko'rsatilgan bo'lsa, 66-darsda fe'llarning

ma'noviy guruhlarini nutqiy faoliyat, aqliy faoliyat, jismoniy faoliyat va holat fe'llari tarzida 4 guruhga bo'lingan. Bizningcha, 26-dars va 66- dars uchun materiallar qayta to'ldirilishi ma'qul bo'lar edi. Ya'ni fe'llarning harakatni yoki holatni atab kelishi tushuntirilishi jarayonida ularning ma'noviy guruhlarini ajratilishi zarur. Masalaning yana bir tomoni shundaki, o'rta maxsus ta'limda «Fe'l va uning uslubiy xususiyatlari» o'rganilishi jarayonida esa fe'llar qanday harakat va holatni ifodalashiga ko'ra 9 ta turga bo'lingan: yumush, tafakkur, sezgi, ruhiy holat, nutq, ishora, jismoniy holat, tabiiy holat, ko'rish fe'llari kabilar. Ta'limning ikki bosqichidagi nomuvofiqlikni bartaraf qilish zarur. Fe'l so'z turkumiga doir atamalarning, tasniflarning 6-sinf darsligida qo'llanilishi va uning shu bo'lim o'rganiladigan o'rta maxsus ta'lim amaliyotida bo'lgan darsliklarda berilishi o'rtasida keskin tafovutlar seziladi. Nazariy ma'lumotlarning har xilligi o'quvchilarda ikkilanish paydo qiladi. Shuning uchun amalda qo'llanilayotgan darsliklardagi bunday nomutanosibliklarni qayta ko'rib chiqish zaruriyati paydo bo'lmoqda. 6-sinfda oldingi sinfda o'rganilganlar bilan uzviylikda tilning fonetika va grafika, morfologiya, sintaksis va leksikologiya sathlaridan dastlabki ma'lumotlar amaliy o'rgatiladi. Bu maqsadlarni o'rgatishga rejalashtirilgan dars mashg'ulotlarida O'quvchi yozma nutqining imloviy savodliligi, og'zaki nutqning to'g'ri, ravon, ta'sirchan bo'lishi, dialogik nutqning ta'sirchan, izchil bo'lishi, mantiqiy jihatdan aniq bo'lishi, fikr ehtiyoji bilan amaliy-nazariy, usuliy ahamiyat kasb etishi tabiiydir.

Xullas, umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun tuziladigan darsliklarda tuzishda ularning boshlang'ich, o'rta maxsus hamda oliy ta'lim bilan uzluksizligini ta'minlash maqsadida ularning o'quv rejalarni sinchikovlik bilan ko'zdan kechirib chiqish lozimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik. –Toshkent: «Tasvir», 2017.
2. A. Nurmonov va boshqalar Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. –Toshkent: Ma'naviyat, 2015.